

BUXORO VILOYATI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI**Husenov Sharofiddin Samoyiddinovich***Buxoro shahar hokimining o‘rinbosari,
investisiya, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘i*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Buxoro viloyati misolida tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqot jara yonida hududning tashqi savdo ko‘rsatkichlari, eksport hajmi va uning tarkibiy tuzilmasi 2020–2025-yillar kesimida statistik ma‘lumotlar asosida o‘rganildi. Tahlillar natijasida eksport hajmi o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lsa-da, uning samaradorligi va diversifikatsiya darajasi yetarli emasligi aniqlangan. Xususan, eksport tarkibida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushi pastligi hamda “boshqalar” guruhining yuqori ulushi eksport faoliyatining yetarli darajada ixtisoslashmaganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatida infratuzilmaviy, moliyaviy va institutsional muammolar mavjudligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida eksport salohiyatini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushini kengaytirish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *eksport salohiyati, tadbirkorlik subyektlari, eksport diversifikatsiyasi, tashqi savdo, hududiy iqtisodiyot, eksport samaradorligi, qo‘shimcha qiymat, logistika infratuzilmasi, eksport tarkibi, hududiy rivojlanish.*

Kirish.

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida eksport faoliyatini rivojlantirish milliy va hududiy iqtisodiyotlarning barqaror o‘shishini ta‘minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xalqaro savdo aloqalarining kengayishi, global raqobatning kuchayishi hamda ishlab chiqarish jarayonlarining xalqaro qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvi eksport salohiyatini oshirish masalasini yanada dolzarb etmoqda. Ayniqsa, hududiy darajada eksportni rivojlantirish iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish va mahalliy ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda eksport salohiyatini oshirish hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim drayverlaridan biri sifatida qaraladi. Xususan, Jahon banki tomonidan olib borilgan

tadqiqotlarda eksportni diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlarga yo‘naltirish hamda hududiy ixtisoslashuvni rivojlantirish iqtisodiy o‘shishni ta‘minlovchi asosiy omillar sifatida e‘tirof etilgan . Ushbu yondashuv eksport tarkibini takomillashtirish orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash mumkinligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, BMT Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD) tomonidan olib borilgan tahlillarda eksport salohiyatini oshirishda global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv, innovatsion faoliyatni kengaytirish hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etishi ta‘kidlangan. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va xomashyo eksportidan yuqori qayta ishlangan mahsulotlar eksportiga o‘tish ustuvor vazifalardan biri sifatida ko‘rsatiladi.

Bundan tashqari, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda hududiy darajada eksportni rivojlantirish iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda muhim omil sifatida baholanadi . Ushbu yondashuv eksport faoliyatini faqat makroiqtisodiy darajada emas, balki hududiy kesimda ham rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

O‘zbekistonda eksport faoliyatini rivojlantirish va tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorlardagi ishtirokini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar eksport faoliyatining huquqiy, institutsional va moliyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunida tashqi savdo faoliyatining asosiy tamoyillari, eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish tartibi hamda tadbirkorlik subyektlarining huquq va majburiyatlari belgilab berilgan. Mazkur qonun eksport faoliyatini erkinlashtirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va milliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorlarga chiqishini ta‘minlashning huquqiy asosini tashkil etadi .

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmonida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan bo‘lib, unda eksport hajmini oshirish, mahsulotlar diversifikatsiyasini ta‘minlash hamda hududlar eksport salohiyatini kengaytirish muhim vazifalar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Mazkur strategik hujjat eksport faoliyatini tizimli rivojlantirish va hududiy iqtisodiyotni rag‘batlantirishning konseptual asosini belgilaydi .

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5184-son qarorida eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Xususan, eksportyor korxonalarini kreditlash, sug‘urtalash hamda moliyaviy rag‘batlantirish

tizimini kengaytirish orqali ularning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish ko‘zda tutilgan. Ushbu qaror eksport faoliyatini amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlashning muhim instrumenti sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda ham eksport faoliyatini kengaytirish va uni diversifikatsiya qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Biroq hududlar kesimida eksport salohiyatidan foydalanish darajasi bir xil emas. Jumladan, Buxoro viloyatida eksport hajmi o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lishiga qaramay, uning tarkibiy tuzilmasi va samaradorligi hali yetarli darajada rivojlanmagan.

Mazkur holat tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishning ilmiy asoslangan yo‘nalishlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shu bois ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi Buxoro viloyati misolida tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini baholash va uni oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda eksportni rag‘batlantirish, uning geografiyasi va tarkibini diversifikatsiya qilishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada, mamlakat eksport hajmi izchil o‘shish sur‘atlarini namoyon etmoqda. Xususan, 2025-yilda eksport hajmining 33,8 mlrd AQSh dollariga yetgani (+24 %) eksport faoliyatining milliy iqtisodiyotdagi o‘rni tobora ortib borayotganligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, hududlar kesimida eksport salohiyatidan foydalanish darajasi turlicha bo‘lib qolmoqda. Jumladan, Buxoro viloyati iqtisodiy resurslarga ega hududlardan biri bo‘lishiga qaramay, eksport ko‘rsatkichlari mavjud imkoniyatlarga nisbatan yetarli darajada shakllanmagan. 2025-yil yakunlariga ko‘ra, viloyat eksport hajmi 414 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib, bu hududning ishlab chiqarish va resurs salohiyati bilan to‘liq mos kelmaydi. Buxoro viloyati viloyatlar va Toshkent shahrini inobatga olganda eksport hajmi bo‘yicha 12-o‘rinda qayd etilgan. Bundan tashqari, eksport tarkibida asosan xomashyo va kam qayta ishlangan mahsulotlarning ustunligi yuqori qo‘shimcha qiymat yaratish darajasining pastligini anglatadi.

Mazkur sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ular hududiy iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida nafaqat ichki bozorni to‘ldirish, balki tashqi bozorlarga chiqish orqali iqtisodiy o‘shishni jadallashtirish imkonini beradi. Biroq amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlik subyektlari eksport faoliyatida qator tizimli muammolar mavjud bo‘lib, ular orasida logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi hamda tashqi bozorlarga oid marketing va axborot yetishmovchiligi alohida o‘rin tutadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash va ilmiy asoslash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini baholash va uni oshirish yo‘nalishlarini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik usullar uyg‘un holda qo‘llanilib, ular orqali muammoning turli jihatlarini chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotning nazariy asosini eksport salohiyati, xalqaro savdo va hududiy iqtisodiy rivojlanish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy ishlanmalar tashkil etdi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda eksport faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar hamda davlat dasturlari o‘rganildi. Empirik tahlil jarayonida Buxoro viloyati bo‘yicha rasmiy statistik ma‘lumotlardan foydalanildi. Xususan, hududning eksport hajmi, uning tarkibi, o‘rnatilgan dinamikasi hamda tashqi savdo ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Ma‘lumotlar asosan davlat statistika organlari va ochiq rasmiy manbalardan olindi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

Tizimli tahlil usuli — eksport salohiyatining tarkibiy elementlarini kompleks o‘rganish va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash uchun qo‘llanildi;

Taqqoslash usuli — hududlar kesimida eksport ko‘rsatkichlarini solishtirish va mavjud tafovutlarni aniqlash imkonini berdi;

Dinamik tahlil usuli — eksport hajmining vaqt bo‘yicha o‘zgarish tendensiyalarini aniqlashda ishlatildi;

SWOT-tahlil — tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatidagi kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar va tahdidlarni baholash uchun qo‘llanildi;

Statistik tahlil usullari — eksport ko‘rsatkichlarini miqdoriy baholash va umumlashtirishda foydalanildi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida umumlashtirish, mantiqiy xulosa chiqarish va ekspert baholash usullaridan ham keng foydalanildi. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchligini oshirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur metodologik yondashuv tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini har tomonlama baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish imkonini berdi.

Natijalar va tahlil.

Tadqiqot natijalari Buxoro viloyatida tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyati mavjud bo‘lishiga qaramay, undan foydalanish darajasi yetarli emasligini ko‘rsatdi. Hudud iqtisodiyoti tarkibida sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasi muhim o‘rin tutadi, biroq ushbu tarmoqlarning eksportga yo‘naltirilganlik darajasi pastligicha qolmoqda. So‘nggi

yillarda viloyatda eksport hajmi ma’lum darajada o’sish tendensiyasiga ega bo’lgan. Jumladan, 2025-yil yakunlariga ko‘ra eksport hajmi 414 mln AQSh dollarini tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkich o‘tgan davrga nisbatan ijobiy dinamikani aks ettiradi, ammo hududning mavjud ishlab chiqarish va resurs salohiyati bilan solishtirilganda yetarli darajada emas. Shu bilan birga, hududda import hajmining yuqoriligi kuzatiladi, bu esa tashqi savdo balansining manfiyligini ifodalaydi (1-jadval).

1-jadval**Buxoro viloyatining tashqi savdo ko‘rsatkichlari (2020–2025 yy.)⁸⁸**

Ko‘rsatkichlar/ yillar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Tashqi savdo aylanmasi (mln \$)	831.2	1180.9	1224.8	1212.3	1324.6	1686.6
Eksport (mln \$)	231.1	312.1	306.5	301.4	311.7	414.0
Import (mln \$)	600.1	868.8	918.3	910.9	1012.9	1272.6
Savdo balansi (mln \$)	-369.1	-556.7	-611.8	-609.5	-701.2	-858.6

2020–2025-yillar davomida Buxoro viloyati tashqi savdo ko‘rsatkichlari tahlili hududda umumiy hajmning o‘shish tendensiyasi kuzatilayotganini ko‘rsatadi. Biroq mazkur o‘shish tarkibiy jihatdan muvozanatli emasligi bilan tavsiflanadi. Jumladan, tashqi savdo aylanmasi 2020-yildagi 831,2 mln AQSh dollaridan 2025-yilda 1686,6 mln AQSh dollarigacha oshib, deyarli ikki barobar o‘shishni namoyon etgan. Ushbu o‘shish, ayniqsa, 2021–2022-yillarda sezilarli darajada tezlashgan bo‘lib, bu holat global iqtisodiy faollikning pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonlari bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, eksport hajmining o‘shish sur‘atlari tashqi savdo aylanmasi umumiy dinamikasiga nisbatan pastroq darajada shakllangan. Eksport hajmi 2020-yildagi 231,1 mln AQSh dollaridan 2025-yilda 414,0 mln AQSh dollarigacha oshgan bo‘lib, bu qariyb 1,8 baravar o‘shishni anglatadi. Biroq ayrim yillarda, xususan 2022–2023-yillarda eksport hajmining qisqarishi kuzatilganligi uning barqaror emasligini va tashqi kon’yunkturaga yuqori darajada bog‘liqligini ko‘rsatadi. Import hajmi esa mazkur davrda barqaror va yuqori sur‘atlarda o‘shib borgan. Xususan, 2020-yilda 600,1 mln AQSh dollarini tashkil etgan import hajmi 2025-yilda 1272,6 mln AQSh dollarigacha yetgan, ya’ni 2 baravardan ortiq o‘shish

⁸⁸ O‘zbekiston respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

kuzatilgan. Bu holat hudud iqtisodiyotida ishlab chiqarish va iste‘mol ehtiyojlarini qondirishda import omilining ustuvorligini ko‘rsatadi.

Tashqi savdo balansining tahlili esa yanada muhim xulosalarni beradi. Tadqiq etilgan davr mobaynida savdo balansi doimiy ravishda manfiy bo‘lib, uning hajmi yildan-yilga ortib borgan. Xususan, 2020-yilda -369,1 mln AQSh dollarini tashkil etgan manfiy saldo 2025-yilda -858,6 mln AQSh dollarigacha chuqurlashgan. Bu esa eksport va import o‘rtasidagi tafovutning kengayib borayotganligini hamda hududda eksport salohiyatidan to‘liq foydalanilmayotganligini anglatadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish mumkin. Birinchidan, tashqi savdo hajmining o‘sishi asosan import hisobiga ta‘minlanmoqda, bu esa eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiy model yetarli darajada shakllanmaganligini bildiradi. Ikkinchidan, eksport hajmining nisbatan past sur‘atlarda o‘sishi hududda yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish darajasining cheklanganligi bilan bog‘liq. Uchinchidan, savdo balansining manfiyligi hudud iqtisodiy barqarorligi va tashqi iqtisodiy xavfsizligi nuqtai nazaridan muhim muammo sifatida namoyon bo‘ladi. To‘rtinchidan, eksport dinamikasining beqarorligi tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorlarga moslashuvchanligi va raqobatbardoshligi yetarli darajada emasligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar Buxoro viloyati tashqi savdo faoliyati hajman kengayayotgan bo‘lsa-da, uning sifat ko‘rsatkichlari, xususan eksport samaradorligi va diversifikatsiya darajasi yetarli emasligini ko‘rsatadi. Mazkur holat hududda eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish, qo‘shimcha qiymat zanjirlarini kengaytirish hamda tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini institutsional va moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash zarurligini asoslaydi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar Buxoro viloyati tashqi savdo hajmi yildan-yilga oshib borayotganini ko‘rsatadi. Biroq ushbu o‘shish faqat miqdoriy jihatdan namoyon bo‘lib, uning sifat ko‘rsatkichlari, ayniqsa eksport samaradorligi va tarkibiy tuzilmasi hali yetarli darajada rivojlanmaganligini ko‘rish mumkin. Xususan, eksport hajmining nisbatan sekin o‘shishi va savdo balansining manfiyligicha qolayotgani hududda eksport faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq muayyan tizimli muammolar mavjudligini anglatadi. Shu sababli, mavjud holatni chuqurroq anglash va eksport salohiyatining haqiqiy darajasini baholash uchun uning tarkibiy tuzilmasini tahlil qilish zarur bo‘ladi. Chunki eksport hajmining ortishi har doim ham uning sifat jihatdan rivojlanganini anglatmaydi. Aksincha, eksport tarkibida qaysi mahsulotlar ustunlik qilayotgani uning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda asosiy e‘tibor eksport tarkibining o‘zgarishlariga qaratildi. Import ko‘rsatkichlari esa umumiy tashqi savdo muvozanatini tushunish uchun yordamchi omil sifatida hisobga olindi. Eksport tarkibidagi o‘zgarishlar hududda ishlab

chiqarishning qanchalik diversifikatsiyalanganini, qo‘shimcha qiymat yaratish darajasini hamda tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorlarga moslashuv imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Shu asosda Buxoro viloyati eksport tarkibining 2020–2025-yillardagi o‘zgarish dinamikasi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Buxoro viloyati eksport tarkibining 2020–2025-yillardagi dinamikasi⁸⁹

Ko‘rsatkichlar/ yillar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Paxta tolasi	29.3	35.8	1.1	0.0	0.0	0.0
Oziq-ovqat mahsulotlari	13.5	9.8	13.6	8.3	2.9	2.6
Kimyo mahsulotlari	1.8	1.3	3.9	3.5	22.5	28.2
Energiya resurslari	7.0	7.2	21.6	20.7	0.7	0.8
Qora va rangli metallar	0.6	0.1	0.1	0.3	2.1	14.7
Mashina va uskunalar	1.6	0.2	0.0	2.0	3.8	4.7
Xizmatlar	4.6	6.4	6.0	9.8	13.8	13.3
Boshqalar	41.7	39.2	53.7	55.4	54.2	35.7

2-jadval ma’lumotlari Buxoro viloyati eksport tarkibining 2020–2025-yillar davomida sezilarli tarkibiy o‘zgarishlarga uchraganligini ko‘rsatadi. Ushbu o‘zgarishlar hudud iqtisodiyotida ishlab chiqarish yo‘nalishlarining transformatsiyasi, eksport tarkibining diversifikatsiyasi hamda an’anaviy xomashyo eksportidan asta-sekin yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar eksportiga o‘tish jarayonlari bilan izohlanadi. Avvalo, eksport tarkibida an’anaviy mahsulot hisoblangan paxta tolasi ulushining keskin qisqarishi alohida e’tiborga loyiq. Xususan, 2020-yilda 29,3 foizni tashkil etgan ushbu ko‘rsatkich 2022-yildan boshlab deyarli nol darajaga tushgan. Bu holat mamlakat miqyosida olib borilayotgan xomashyoni chuqur qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan iqtisodiy siyosatning hudud darajasida ham amaliy natijalar berayotganligini anglatadi. Shu bilan birga, bu o‘zgarish eksport tarkibining sifat jihatdan yangilanayotganligini ko‘rsatadi.

Eksport tarkibidagi ijobiy tendensiyalardan yana biri — kimyo mahsulotlari ulushining keskin oshib borayotganidir. Agar 2020-yilda kimyo sanoati mahsulotlari eksportdagi ulushi

⁸⁹ O‘zbekiston respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

atigi 1,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 28,2 foizga yetgan. Mazkur holat hududda sanoat ishlab chiqarishining kengayib borayotganligi, xususan kimyo sanoati tarmog‘ining eksportga yo‘naltirilgan yo‘nalishda rivojlanayotganligini ko‘rsatadi. Bu esa eksport tarkibida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushining ortib borayotganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, xizmatlar eksportining izchil o‘shishi ham muhim ahamiyatga ega. Tahlil qilinayotgan davrda xizmatlar ulushi 4,6 foizdan 13,3 foizgacha oshgan. Bu esa hudud iqtisodiyotida xizmatlar sektorining faollashib borayotganligi hamda uning tashqi bozorlarga integratsiyalashuv darajasi ortib borayotganligini bildiradi. Ayniqsa, turizm, transport va boshqa xizmat turlarining rivojlanishi ushbu o‘shishning asosiy omillari sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Biroq eksport tarkibida ayrim salbiy jihatlar ham saqlanib qolmoqda. Xususan, “boshqalar” guruhining yuqori ulushi (ayrim yillarda 50 foizdan ortiq) eksport tarkibining yetarli darajada tizimlashtirilmaganligini hamda aniq ixtisoslashuv yo‘nalishlari shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Ushbu holat eksport tarkibida yuqori konsentratsiyaga ega asosiy mahsulotlar segmentining yetarli darajada rivojlanmaganligini anglatadi. Natijada eksport tarkibi tarqoq va barqaror bo‘lmagan shaklda namoyon bo‘lmoqda. Energiya resurslari ulushining ayrim yillarda keskin o‘zgarib turishi ham eksport tarkibining tashqi bozor kon’yunkturasi bog‘liqligini ko‘rsatadi. Xususan, 2022–2023-yillarda ushbu ko‘rsatkichning yuqori darajaga chiqishi, keyingi yillarda esa keskin pasayishi eksport tarkibining barqaror emasligini bildiradi. Mashina va uskunalari hamda metall mahsulotlari ulushining nisbatan past bo‘lishi hududda yuqori texnologiyali va sanoat mahsulotlari eksporti hali yetarli darajada rivojlanmaganligini ko‘rsatadi. Bu esa eksport tarkibining texnologik darajasi past ekanligini va sanoat diversifikatsiyasini yanada chuqurlashtirish zarurligini anglatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari Buxoro viloyati eksport tarkibida ijobiy o‘zgarishlar va diversifikatsiya jarayonlari kuzatilayotganligini ko‘rsatsa-da, ushbu jarayonlar hali to‘liq shakllanmagan va tizimli tus olmaganligini ko‘rsatadi. Xususan, eksport tarkibining barqarorligi, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushining kengayishi hamda aniq ixtisoslashuv yo‘nalishlarining shakllanishi dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Muhokama va tahlillar

Olib borilgan tahlillar Buxoro viloyatida tashqi savdo hajmi yildan-yilga ortib borayotganini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, uning sifat jihatlari hali yetarli darajada shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, eksport hajmining importga nisbatan past sur‘atlarda o‘shishi va savdo balansining doimiy ravishda manfiyligicha qolayotgani hududda eksport salohiyatidan to‘liq foydalanilmayotganligini anglatadi. Bu esa eksportni

rivojlantirish masalasini faqat hajmiy ko‘rsatkichlar orqali emas, balki uning tarkibiy va institutsional jihatlari nuqtai nazaridan ham ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Eksport tarkibi tahlili shuni ko‘rsatdiki, hududda an‘anaviy xomashyo eksportidan asta-sekin qayta ishlangan mahsulotlar eksportiga o‘tish jarayoni kuzatilmoqda. Bu, albatta, ijobiy holat. Biroq ushbu jarayon hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, eksport tarkibida barqaror yetakchi tarmoqlar va mahsulotlar segmenti mavjud emas. Xususan, “boshqalar” guruhining yuqori ulushi eksport tarkibining tarqoq va tizimsiz ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa hududda eksport ixtisoslashuvi yetarli darajada shakllanmaganligini anglatadi. Mazkur holatni izohlashda inson omilini ham inobatga olish muhimdir. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab tadbirkorlik subyektlari eksport faoliyatini yo‘lga qo‘yishda zarur bilim va tajribaga ega emas. Xususan, tashqi bozorlarga chiqish, xalqaro standartlar, sertifikatlash talablari hamda marketing strategiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha bilimlarning yetishmasligi eksport faoliyatini chekllovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli eksport salohiyatini oshirishda faqat moddiy resurslar emas, balki inson kapitalini rivojlantirish ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorlarga moslashuvchanligi pastligi ham eksportning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Bu esa ko‘p hollarda bozor kon‘yunkturasini yetarli darajada tahlil qilmaslik, eksport strategiyasining yo‘qligi yoki noto‘g‘ri shakllanganligi bilan bog‘liq. Natijada eksport hajmi ayrim yillarda o‘zgaruvchan bo‘lib qolmoqda. Eksport faoliyatini rivojlantirishda infratuzilma omili ham muhim o‘rin tutadi. Xususan, logistika tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi mahsulotlarning tashqi bozorlarga yetkazib berilishida qo‘shimcha xarajatlar keltirib chiqarmoqda. Bu esa mahalliy mahsulotlarning narx jihatdan raqobatbardoshligini pasaytiradi. Shu bois eksportni rivojlantirishda transport-logistika tizimini takomillashtirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralishi lozim.

Moliyaviy omillar ham eksport faoliyatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Tadbirkorlik subyektlarining eksportni kengaytirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari cheklangan. Xususan, eksport kreditlari, sug‘urta va kafolat mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi eksport hajmining oshishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli davlat tomonidan eksportni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarur. Bundan tashqari, eksport tarkibini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, hududda yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi hali past darajada. Bu esa ishlab chiqarishning innovatsion rivojlanish darajasi yetarli emasligini ko‘rsatadi. Zamonaviy sharoitda esa eksport salohiyatini oshirish ko‘p jihatdan innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ilmiy-texnik salohiyatni rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq. O‘z navbatida, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi eksport faoliyati uchun yangi imkoniyatlarni ochib

bermoqda. Elektron tijorat platformalari orqali mahsulotlarni xalqaro bozorlarga chiqarish imkoniyati kichik biznes subyektlari uchun ayniqsa muhim hisoblanadi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, hudud tadbirkorlarining aksariyati ushbu imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanmayapti.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, Buxoro viloyatida eksport salohiyatini oshirish masalasi ko‘p omilli va kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, inson kapitalini rivojlantirish, infratuzilmani takomillashtirish hamda moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish o‘zaro uyg‘un holda amalga oshirilishi zarur.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari Buxoro viloyatida tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyati yetarli darajada mavjud ekanligini, biroq undan foydalanish samaradorligi past darajada qolayotganligini ko‘rsatdi. Xususan, tashqi savdo hajmining o‘shishiga qaramay, eksport hajmining nisbatan sust sur‘atlarda oshib borishi hamda savdo balansining manfiyligicha saqlanib qolayotgani hududda eksport faoliyatining tarkibiy va institutsional jihatdan takomillashmaganligini anglatadi. Tahlillar eksport tarkibida muayyan ijobiy siljishlar kuzatilayotganligini ko‘rsatdi. Jumladan, an’anaviy xomashyo eksportidan asta-sekin qayta ishlangan mahsulotlar eksportiga o‘tish jarayoni shakllanmoqda. Bu esa hudud iqtisodiyotining modernizatsiya jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, eksport samaradorligini oshirish uchun muhim asos yaratadi. Shu bilan birga, eksport tarkibida “boshqalar” guruhining yuqori ulushi saqlanib qolayotgani eksportning aniq ixtisoslashmaganligini, mahsulotlar bo‘yicha strategik yo‘nalishlar yetarli darajada shakllanmaganligini ko‘rsatadi.

Mazkur holatni kompleks tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, eksport salohiyatining to‘liq ro‘yobga chiqarilmasligi bir qator o‘zaro bog‘liq omillar bilan izohlanadi. Xususan, ishlab chiqarishning eksportga yo‘naltirilmaganligi, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish darajasining pastligi, logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorlarga moslashuvchanligi pastligi ushbu muammoning asosiy sabablaridan hisoblanadi. Shuningdek, inson omili ham muhim rol o‘ynaydi. Tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatiga oid bilim va ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi, xalqaro standartlar va sertifikatlash talablariga moslashishdagi qiyinchiliklar hamda marketing va eksport strategiyalarini ishlab chiqishdagi kamchiliklar eksport hajmining oshishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli eksport salohiyatini oshirishda inson kapitalini rivojlantirish muhim ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, hududda eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish modelini shakllantirish va rivojlantirish zarur. Bu jarayonda mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, eksport tarkibida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ilmiy-texnik salohiyatni rivojlantirish zarur. Bu esa hududning eksport raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, logistika infratuzilmasini rivojlantirish, jumladan transport, saqlash va yetkazib berish tizimlarini modernizatsiya qilish orqali eksport xarajatlarini kamaytirish va mahsulotlarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish lozim.

To‘rtinchidan, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, xususan eksport kreditlari, sug‘urta va kafolat mexanizmlarini kengaytirish orqali eksport faoliyatini rag‘batlantirish zarur.

Beshinchidan, eksport faoliyatida inson kapitalini rivojlantirish, ya’ni tadbirkorlarning eksportga oid bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularni xalqaro bozorlarga chiqish strategiyalari bo‘yicha tayyorlash muhim hisoblanadi.

Oltinchidan, raqamli texnologiyalar va elektron tijorat imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali kichik biznes subyektlarining global bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”. 2000-yil 26-may, 77-II-son. Toshkent. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-67345>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. PF-60-son, 2022-yil 28-yanvar. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/5841063>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to‘g‘risida”. PQ-5184-son, 13.07.2021. Elektron manba: <https://lex.uz/uz/docs/5510356>
4. OECD. Trade Policy and Regional Development. Paris: OECD Publishing, 2021.
5. UNCTAD. Trade and Development Report 2022. Geneva: United Nations, 2022.
6. World Bank. World Development Report 2021: Data for Better Lives. Washington, DC, 2021.

7. <https://stat.uz>
8. <https://buxstat.uz/>